

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

VAZIRLAR MAHKAMASINING

QARORI

07.06.2010 y.

N 109

UMUMTA`LIM MAKTABLARINING

9-SINF BITIRUVChILARINI AKADEMIK

LISEYLAR VA KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA

O`QITISH BILAN QAMRAB OLISHNI TA`MINLASH

BO`YICHA NORMATIV-HUQUQIY BAZANI YaNADA

TAKOMILLASHTIRISH TO`G`RISIDA

1-ilova. Umumta'lim maktablarining 9-sinf

bitiruvchilarini o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

muassasalariga qabul qilish ko`rsatkichlarini

shakllantirish tartibi to`g`risidagi nizom

2-ilova. Umumta'lim maktablarining 9-sinf

bitiruvchilarini o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

muassasalariga qabul qilish va rasmiylashtirishni

tashkil etish tartibi to`g`risidagi nizom

"Ta'lim to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarida o`qitish bilan to`liq qamrab olishni ta'minlash, iqtisodiyotning real tarmoqlarida talab mavjud bo`lgan mutaxassisliklar bo`yicha o`rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli kadrlar tayyorlash darajasi va sifatini oshirishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul qilish ko`rsatkichlarini shakllantirish tartibi to`g`risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul qilish va rasmiylashtirishni tashkil etish tartibi to`g`risidagi nizom

2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligining O`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, O`zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar tasdiqlangan Nizomlarga qat'iy amal qilsinlar hamda ularda belgilangan talablarga belgilangan muddatlarda so`zsiz rioya qilinishini ta'minlasinlar.

3. O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda umumta'lim maktablarining 8-9-sinf o`quvchilarini kasbga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashhis ishlarini aniq maqsadni ko`zlab, samarali va muntazam tashkil etsin; bir oy muddatda o`quvchilarni kasbga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashhis tizimini tanqidiy ko`rib chiqsin va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Xalq ta'limi muassasalarida psixologik xizmat to`g`risidagi nizom loyihasini kiritsin; O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligining O`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi bilan birgalikda umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarda o`qitish bilan to`liq qamrab olishni ta'minlash to`g`risidagi ma'lumotlarning xolisligini muntazam tekshirib borsin.

4. O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligining O`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda: qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o`zgartirishlar va qo`shimchalar to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin; idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o`rinbosari A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O`zbekiston Respublikasining Bosh vaziri

Sh. Mirziyoev

"O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami", 2010 yil, 23-son, 184-modda.